

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”
QQDU rektori
A.Reymov**



**60320100 – JURNALISTIKA (FAOLIYAT TURLARI BO‘YICHA)
BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHI BO‘YICHA IJODIY (KASBIY)
IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Nukus – 2023

Tuzuvchilar: J.Marziyaev – QQDU Jurnalistika kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD), dotsent.

X.Atajanov– QQDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar: B.Nurabullaev – Qoraqalpog'iston Axborot agentligi direktori, filologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

E.Jarimbetov – QQDU dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Kirish

60320100 – Jurnalistika (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishida ijodiy imtihon o'tkazishdan maqsad, abituriyentda matbuot nashrlari va matbaachilik sohalari talab etadigan ijodiy qobiliyat, mustaqil fikrlash mahorati, dalillash va xulosalar chiqarish kabi sifatning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir. Ijodiy imtihon jarayonida abituriyentlarning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyati;
- Ijtimoiy muammolarni qay darajada anglay olishi;
- Bosma va elektron OAVda yoritilayotgan dolzarb mavzular va muammolardan xabardorligi;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- OAV faoliyatini qay darajada bilishi;
- Kasbni tanlash sabablari;
- Jurnalistika kasbiga moyilligi;
- Fikr-mulohazalarining mustaqilligi;
- Yozma va og'zaki savodxonlik darajasi;
- O'z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;
- Yozma va og'zaki muloqotga moyilligi.

Ijodiy imtihonning tuzilishi

Ijodiy imtihon 2 bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich abituriyentlarning ijodiy qobiliyati va dunyoqarashini baholash bo'yicha **og'zaki suhbat** bo'lib, u quyidagi tartibda o'tkaziladi:

– abituriyentning ommaviy axborot vositalari va Internet saytlarida e'lon qilingan, chop etilgan jurnalistik (publitsistik) materiallari komissiya a'zolari tomonidan o'rganiladi. Maqolalarda yoritilgan mavzularning tarixi yoki dolzarbligi yuzasidan abituriyent bilan suhbat o'tkaziladi. Suhbat jarayonida maqola yozilishiga sabab bo'lgan voqea-hodisa tahlil etiladi hamda abituriyentning dunyoqarashi, qiziqishlari, kimlar bilan suhbat o'tkazgani aniqlanadi;

– jamiyat va uning turli sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlardan xabardorlik darajasini aniqlash bo'yicha savollar beriladi;

– O'zbekiston va jahonda yuz berayotgan so'nggi yangiliklar, yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, islohotlar bo'yicha savollar berish orqali abituriyentning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalardagi o'zgarishlardan boxabarlik darajasi aniqlanadi;

– badiiy, publitsistik va jurnalistik ijod namunalari, ushbu sohalardagi namoyandalari, adiblar, ijodkorlar faoliyati, so'nggi davrlarda yaratilgan adabiyotlar xususida savollar berish orqali talabgorning badiiy adabiyot, publitsistika hamda jurnalistika sohalaridagi bilimi baholanadi;

– suhbat davomida jurnalistika sohasiga tegishli savollar beriladi va shu tariqa abituriyentning bu sohadan xabardorlik darajasi belgilanadi. Shuningdek, abituriyentning muloqotga kirishuvchanligi, istiqbol rejalari, notiqlik qobiliyati, fikrni obrazli ifoda etish kabi fazilatlarini aniqlanadi.

Og'zaki suhbat davomida so'rashga tavsiya qilinadigan namunaviy savollar:

1. Nega aynan jurnalist bo'lmoqchisiz? Bu tanlov kimning ta'sirida bo'ldi?
2. Sizni jurnalistikada nima qiziqtiradi? Qachondan beri jurnalistika sohasiga qiziqasiz?

3. Qaysi ommaviy axborot vositasini doimiy kuzatib borasiz? Siz havas qilgan jurnalist kim?

4. Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilganmisiz? Qachondan boshlab va kim bilan qancha vaqt mobaynida ijodiy hamkorlik qilgansiz?

5. OAVda materiallaringizni e'lon qilganmisiz? Qaysi matbuot nashrlarida nechta materialingiz e'lon qilingan? Bu materiallar nima haqida? Materiallaringizni qanday yozgansiz, tarixini aytib bering.

6. Sizni ta'sirlantirgan va yozishga majbur qilgan birinchi ijodiy materialingiz haqida gapirib bering.

7. Jurnalist portretiga chizgi (ta'rif) bering.

8. O'zbekistonning keyingi yillardagi rivojlanishida jurnalistikaning o'rnini qanday baholaysiz?

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan e'lon qilingan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirishda jurnalistlarning roli nimadan iborat deb hisoblaysiz?

10. Jurnalistlarni shaxterlardan keyingi xavfli soha vakillari deb bilishadi, bu sizni qo'rqitmaydimi?

11. Xalq bilan muloqot o'rnatishda jurnalistikaning o'rnini qanday bo'lishi kerak?

12. Sizningcha, jurnalist advokatga yoki tergovchiga aylanib qolishi qanchalik to'g'ri?

13. Siz intervyu olishni xohlagan birinchi qahramoningiz kim? Unga qanday savollar bergan bo'lardingiz?

14. Gazeta deganda nimani tushunasiz? Gazetani ta'riflab bering.

15. Jurnal deganda nimani tasavvur qilasiz? Shu haqda gapirib bering.

16. Gazeta va jurnallarda faoliyat yuritadigan jurnalistlardan kimlarni taniysiz?

17. Agar Siz juda qiziq fakt topgan bo'lsangiz, lekin ushbu fakt kimningdir izzat-nafsigaga tegadigan bo'lsa, nima qilasiz?

18. Jurnalistikada Sizni nima ko'proq qiziqtiradi: ko'nglingizdagi gaplarni yozishmi, xalq dardini o'rganishmi yoki yaxshi oylik olishmi?

19. "Jurnalistning noni qattiq" degan ibora bor. Bunga munosabatingiz qanday?

20. Sizningcha, jurnalist qanday shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak?

21. Universitetda o'qishdan nimalarni kutayapsiz?

22. Texnik jihatdan qurollangan jurnalistga kamida 3 ta narsa kerak deyilsa, nimani olgan bo'lar edingiz? Nima uchun?

23. Ommaviy axborot vositalari deganda nimalarni tushunasiz?

24. Jurnalistika kasbi, iqtidormi yoki ijodmi? Javobingizni izohlang.

25. O'zbekistonda jurnalistlar, muxbirlardan kimlarni bilasiz? Ularning ijodida, chiqishlarida nimalar e'tiboringizni tortadi?

26. Jurnalist materiali insonni e'tiborini tortishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

27. Jurnalist bo'lsangiz qaysi mavzularda yozishni istardingiz? Nima uchun?

28. Siz bilgan jurnalistlar, muxbirlar ijodida, chiqishlarida nimalar sizga yoqmaydi va nima uchun?

29. Jurnalistikada qat'iyon man etiladigan amallar nima?

30. Jurnalistikaning bugungi jamiyatda tutgan o'rnini nimada deb o'ylaysiz?

31. "Jurnalistni oyoqlari boqadi" iborasini izohlang?

32. O'zingizni 5 va 10 yildan keyin kim sifatida ko'rasiz?

33. Qaysi mahalliy bosma OAVni doimiy kuzatib borasiz? Qaysi jihatlari bilan sizni jalb qiladi? Nimani o'zgartirishni tavsiya qilgan bo'lar edingiz?

34. Sizga biror OAVga muharrir sifatida 6 oy davomida ishlashni taklif qilishdi deylik. Qaysi turdagi va yo'nalishdagi OAV ni tanlaysiz?

35. Kelajakda jurnalist sifatida faoliyat olib bora boshladingiz, bir muddat o'tib, sizga oylik maosh bera olmaydigan vaziyatga tushib qolishdi. Siz ishlashda davom etasizmi?

36. Ijtimoiy tarmoqlarga munosabatingiz qanday? Ulardan foydalanishga bir kunda qancha vaqt sarflaysiz va qanday maqsadlarda?

37. Jurnalistikadan boshqa yana qaysi soha siz uchun qiziq?

38. Internetda qaysi jurnalistlar faoliyatini kuzatib borasiz?

39. Ijtimoiy tarmoqlarga munosabatingiz qanday? Ulardan foydalanishga bir kunda qancha vaqt sarflaysiz va qanday maqsadlarda?

40. Sayt deganda nimani tushunasiz? Saytlar faoliyatini tasvirlab bering.

41. Radio nima? Siz radioni qanday tushunasiz?

42. Radiojurnalistlardan kimlarni taniysiz?

43. Televidenie nimasi bilan Sizni qiziqtiradi? Televideniени qanday tushunasiz?

44. Telejurnalistlardan kimlarni taniysiz?

45. Kaysi teleboshlovchilarning faoliyatini kuzatib borasiz?

46. Reportaj nima? Reportaj janrini ta'riflab bering.

47. TV orqali uzatiladigan reportajning radio orqali uzatiladigan reportajdan farqi va o'ziga xosligi nimada?

48. Televidenieda jonli efir deganda nimani tushunasiz?

49. Televidenieda jonli efir orqali chiqishning ahamiyati nimada?

50. Teleradiojurnalist materiali insonni e'tiborini tortishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

51. Teleradiojurnalist bo'lsangiz qaysi mavzularda yozishni yoki ko'rsatuv, eshittirish tayyorlashni istardingiz? Nima uchun?

52. Qanday qilib "teleyulduz" bo'lish mumkin? Mashhur telejurnalist bo'lish uchun qanday sifatlarga ega bo'lish lozim?

53. Bloggerlar jurnalistning noni yarimta qiladi, degan fikrga qo'shilasizmi?

54. "Kim?", "nima?", "qaerda?", "qachon?", "nima uchun?" va "qanday qilib?" savollariga javoblarni jamlashtirgan yangilik-sarlavha o'ylab toping.

Ikkinchi bosqich ijodiy insho shaklida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– ijodiy insho mavzulari hozirgi kun muhim ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlanganligi hamda jurnalistik xususiyatga yo'naltirilgan va abituriyentning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lishi nazarda tutiladi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tuziladi. Mavzular oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda muhrlangan maxsus konvertda qat'iy hisobot hujjatlari sifatida saqlanadi;

– qabul komissiyasining raisi yoki uning topshirig'i bilan rais o'rinbosari ijodiy insho boshlanishidan 20 daqiqa avval fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga ijodiy insho mavzulari solingan konvertlarni topshiradi va fan bo'yicha komissiya a'zolarini imtihon topshiruvchi guruhlariga taqsimlaydi;

– ijodiy insho o'tkazilishi uchun **3 astronomik soat** vaqt belgilanadi;

– ijodiy insho betlari muhrlangan **12 varaqli daftarga** yoziladi, qoralama uchun

ham betlari muhrlangan qog'ozlar beriladi. Ijodiy insho yozilgan daftar va qog'ozlarda yozma ish muallifini bildiruvchi, shartli belgilarning qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi;

- ijodiy inshoning hajmi **5 betdan 10 betgacha** deb belgilanadi;
- ijodiy insho uchun belgilangan vaqt tugagandan so'ng, yozma ishlar qoramalari bilan birga yig'ib olinadi va mas'ul kotibga yoki uning muoviniga topshiriladi;
- mas'ul kotib yoki uning muovini yozma ishlarni shifrlab, fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga tekshirish uchun topshiradi;
- yozma ishlar faqat oliy ta'lim muassasasi binosida va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tekshiriladi;
- tekshirilgan ijodiy insholar qo'yilgan ballari va tekshiruvchilarning imzolari bilan qabul komissiyasining mas'ul kotibi yoki uning muoviniga topshiriladi;
- mas'ul kotib yoki uning muovini insholarni deshifrovka qilib, imtihon qaydnomasiga abituriyentlarning familiyalari va olgan ballarini kiritadi;
- ijodiy inshoga quyidagi yo'nalishlardan kelib chiqib mavzular belgilanadi: ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, vatanparvarlik, milliy iftixor va sog'lom turmush tarzi;
- ijodiy imtihon natijalari ikki kundan so'ng e'lon qilinadi.

Ijodiy imtihonni baholash mezonlari

Ijodiy imtihon yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Ijodiy imtihonda to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori – **93 ball**.

Ijodiy imtihonning birinchi bosqichi, ya'ni og'zaki suhbat jarayonidagi savol-javobni baholash uchun ijodiy imtihonga ajratilgan maksimal ballning **33,3 foizi, ya'ni 31 ball** belgilanadi.

Ijodiy imtihonning ikkinchi bosqichi, ya'ni ijodiy inshoni baholash uchun imtihonga ajratilgan maksimal balldan **66,6 foizi, ya'ni 62 ball** belgilanadi.

Og'zaki suhbatni baholash mezonlari

Og'zaki suhbatga 0 – 31 ballgacha qo'yish mumkin.

№	Ballar qo'yish mezonlari:	ballar
1.	Jurnalistika haqidagi tasavvuri yuzaki, batafsil bilimi yo'q, abituriyentning fikrlashi sayoz, bosma OAVda e'lon qilingan materiallari yo'q, lekin jurnalist bo'lish istagi kuchli	0 – 6 ball
2.	Jurnalistika haqida bir oz tushunchasi bor, kasbga qiziqishi bir-ikki oylik emas, ayrim jurnalistlarni taniydi, bosma OAVda e'lon qilingan 1-3 kichik hajmli material bor	7 – 13 ball
3.	Jurnalistikaga 1-2 yildan beri qiziqadi, kasb haqida tasavvuri yaxshi, bosma OAV faoliyatini izchil ravishda kuzatib boradi, 5-7 e'lon qilgan materiallari bor, 8-10 ta jurnalistni taniydi, ularning ijodiga sharh bera oladi	14 – 19 ball
4.	Jurnalistikaga ko'p yildan beri qiziqadi, jurnalistikaning jamiyatdagi o'rnini chuqur tushunadi, bosma OAVni yaxshi biladi, ko'p jurnalistlarni taniydi va ularning ijodiga atroflicha baho bera oladi, 10-20 ta e'lon qilgan material bor	20 – 25 ball
5.	Jurnalistikaga bolaligidan qiziqadi va 5-6 sinfdan boshlab OAV bilan hamkorlik qiladi, tahririyatga ko'p borgan va redaksiya ishi bilan tanish, jurnalistikaning jamiyatdagi o'rni va roliga chuqur tavsif bera oladi, milliy	26 – 31 ball

	bosma OAV faoliyati haqida atroflicha tasavvuri bor, matubot nashrlarida faoliyat yuritadigan jurnalistlarni taniydi hamda ularning ijodiga tavsif bera oladi, e'lon qilgan materiallari 20 dan ko'p	
--	--	--

Ijodiy inshoni baholash mezonlari: (ballar miqdori – 0 – 62 ball)

№	Ballar qo'yish mezonlari:	ballar
1.	10 tadan ortiq imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan	0 ball
2.	Ish mavzu bo'yicha yozilmagan	0 ball
3.	Mavzu sayoz ochilgan, abituriyentning fikrlashi yuzaki, jurnalistikani tushunishi chuqur emas, yozma ish mantiqan bo'sh, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 10 tagacha	1–8 ball
4.	Mavzu bir oz ochilgan, abituriyentning fikrlashi o'rtadan pastroq, jurnalistikani yaxshi tushunmaydi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 8-9 ta	9–16 ball
5.	Mavzu o'rtacha ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi keng emas, fikrlashi bir oz sayoz, jurnalistikaning rolini o'rtacha tushunadi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 6-7 ta	17–25 ball
6.	Mavzu o'rtadan yuqoriroq ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi torroq, lekin jurnalistikaning jamiyatdagi o'rnini tushunadi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 4-5 ta	26–33 ball
7.	Mavzu nisbatan yaxshi ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi yomon emas, jurnalistikaning roliga yaxshi baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 2-3 ta	34–42 ball
8.	Mavzu yaxshi ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi keng, jurnalistikaning rolini yaxshi tushunadi va unga baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatosi 1 ta	43–52 ball
9.	Mavzu teran ochib berilgan, abituriyentning dunyoqarashi chuqur va atroflicha, jurnalistika roliga yaxshi baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolar yo'q	53–62 ball

Ijodiy imtihon bosqichlarida to'plangan ballar umumlashtirilib, yagona ball sifatida qaydnomaga kiritiladi. Qaydnomaga belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas'ul kotib yoki uning muoviniiga takdim etiladi.

Ijodiy imtihon natijalarini apellyatsiya qilish tartibi

Ijodiy imtihon bosqichlari natijalari bo'yicha apellyatsiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab **24 soat mobaynida** qabul qilinadi.

Murojaat mazmunida faqat o'zining ijodiy ishi va ballari xususida e'tiroz bo'lsa, qabul qilinadi. Lekin boshqa abituriyentlar ishlari va ballari haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Ijodiy insho yozilgan daftar rasmiy hujjat sifatida belgilangan muddatgacha saqlanadi. Undan shaxsiy maqsadlarda nusxa olish, uni suratga tushirish va imtihonlar o'tkazilayotgan hududdan olib ketish mumkin emas.

Apellyatsiya qilish jarayonida abituriyentga qo'shimcha savol berishga ruxsat berilmaydi.

Ijodiy imtihonda olingan bahoni o'zgartirish faqat fan bo'yicha komissiyaning

roziligi bilan va faqat apellyatsiya qiluvchi abituriyent ishtirokida oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Ijodiy imtihonning og'zaki suhbat natijalari apellyatsiyada qayta ko'rib chiqilmaydi.

Ijodiy imtihon o'tkazilishiga qadar apellyatsiyaga ariza berish va uni ko'rib chiqish tartiblari abituriyentlar e'tiboriga yetkaziladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga ko'ra tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Mirziyoev Sh.M. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" 4-jild. T. O'zbekiston. 2020
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 27-iyun matbuot va OAV xodimlari kuni munosabati bilan jurnalistlarga yo'llangan tabrigi <https://president.uz/uz/lists/view/5294>
4. Do'stmuhammad X. Jurnalist bo'lmoqchimisiz? – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020.
5. Toshpo'latova N. Jurnalistika. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari – T., "O'zbekiston". 2019.
6. Do'stqoraev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi Toshkent: G'afur G'ulom, 2009.
7. Fake News: Mediada dezinformatsiya. / N.Muratova, N.Toshpo'latova, G.Alimova. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2020 y.
8. Fotojurnalistika [Matn]: o'quv qo'llanma / N.Qosimova [va boshq.]– T: «TURON-IQBOL», 2018.
9. Jabborov Sh. O'zbekistonda kim yaxshi yashaydi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
10. Jurnalistika. 10 jildlik to'plam. –Toshkent. "O'zbekiston" NMIU. 2019.
11. Meliboev A. Qirq beshinchi bekat – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
12. Muratova N. Onlayn jurnalistika: nazariya va amaliyot // T. Qaqnus media. 2019.
13. Rahmatullayeva I. Televideniye va radioda boshlovchi mahorati. T. "Mumtoz so'z", 2022.
14. Safarov A. Ziddiyatli vaziyatlarda jurnalist faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. T.: "Universitet", 2023.
15. To'xlieva N. Tahrir mahorati. – Toshkent: Bayoz, 2022
16. Toshev F. Jurnalistning noni qattiq. – Toshkent, 2009.
17. Media huquqi[Matn]: darslik / Nazira Qurbon, Karim Bahriyev. T. ; "Grand Inter Media". 2022.
18. Jumanova S. Jurnalistika (abituriyentlar uchun ijodiy imtihon qo'llanmasi) Ikkinchi nashr. T.: O'zJOKU MChJ, 2023.
19. Атажанов Х.А., Марзияев Ж.К., Қиличов Н.Р. Баспасөз типологиясы. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent. Navoiy universiteti. 2018. 80 bet.